



## MAQOM SAN'ATI RIVOJIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA II XALQARO MAQOM SAN'ATI ANJUMANI HUSUSIDA

**Toshboyeva Madina**

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15705090>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 20-Iyun 2025 yil

### KEY WORDS

*Maqom, Shashmaqom, maqom markazi, maqom anjumani, ijrochilik an'analari, maqom merosi, maqom maktabi, maqom festivali*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada bugungi kunda Yurtimizda Maqom targ'iboti bo'yicha olib borilayotgan ishlar mustaqillik yillarida maqomga bo'lgan e'tibor va II xalqaro maqom san'ati anjumani xususida gap boradi. Maqolada maqom san'atini saqlash, targ'ib qilish va yangi avlodga yetkazishdagi muammolar va yechimlar, shuningdek, II Xalqaro maqom san'ati anjumanining o'rni ham tahlil etiladi. Mazkur tadqiqotda maqom san'atining madaniy va ruhiy ahamiyati, uning ijrochilik maktablari, maqomga oid ilmiy izlanishlar va pedagogik metodlar chuqur tahlil etilgan.*

Maqom san'ati O'zbek xalqining eng qadimiy va boy musiqiy meroslaridan biri bo'lib, asrlar davomida shakllangan va og'zaki-professional musiqa janri sifatida rivojlanib kelgan. Bu san'at turi Sharq madaniyatining ruhiy va estetik mohiyatini o'zida aks ettiradi. O'zbekistonning maqom merosi, xususan "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari" va "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" kabi tarmoqlari YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgan. Mazkur maqolada maqom san'atining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar va zamonaviy ta'lim-targ'ibot tizimlari asosida tahlil etish maqsad qilingan.

### Asosiy qism

O'zbek maqom san'ati ming yillik tarixga ega. O'zbek maqomi so'zlaridagi boy ma'no barcha zamonlarda e'tirof etilgan. Yurtimizdagi "Shashmaqom", "Xorazm", "Farg'ona-Toshkent" maqomlari kuyning o'ziga xos mavqei va ijrochilik yo'li bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishi va asrlar osha sayqal topishida davr, zamon, ijtimoiy voqelik muhim unsur sifatida o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bugungi kunda maqomlarga bo'lgan hozirgi e'tibor va qiziqish kundan kunga oshib bormoqdaki, buning isboti o'laroq o'zbek milliy musiqasi uchun alohida shakllantirilgan oliy ta'lim muassasasi va ungi yaqin kunlarda berilgan akademiya unvoni, fikrlarimizni yanada isbotlaydi. Shu jumladan milliy musiqa madaniyati va maqomlarning targ'iboti masalasi hozirgi muhitning dolzarb masalalaridandir.

Maqomlar, xususan, o'zbek va tojik xalqlarining ma'naviy mulki bo'lmish Shashmaqom ko'p asrlar davomida bu sohada olib borilgan ijodiy izlanishlarning samarasidir. Ustoz sozanda va xonandalar keyingi avlodlarga ko'z qorachigidek asrab-avaylab bizgacha yetkazib kelgan maqom namunalari hozirgi kunda nafosat dunyosidagi eng zo'r, beqiyos qiymatga ega bo'lgan musiqa san'atimiz boyliklari sifatida chinakam xalq mulkiga aylandi.

Xususan, IX-XII asrlar maqom san'ati tizimi rivojlanib, u ko'plab shakllarga ega bo'ldi. Ushbu davrda maqomlarning xususiyatlari aniqlanib, ularning ijrosi musiqiy ta'lim orqali uzluksiz avlodlarga o'rgatildi. Arabcha maqom (o'rin, joy, tovush, parda, daraja va hokazo, ko'plik shakli maqomot) atamasi o'tmishda turli ma'noda ishlatilib kelingan. "Musiqqa istilohida esa maqom – musiqqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalardir... Maqom–ma'lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo'llari turkumi ma'nosini ifodalab keldi".[4.21

O'zbek maqom san'ati asrlar davomida shakllanib, turli bosqichlarni bosib o'tgan. Uning rivojlanishida buyuk san'atkorlar, bastakorlar va musiqashunoslar muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda maqom san'ati nafaqat o'zbek xalqi, balki butun insoniyatning bebaho madaniy merosi sifatida e'tirof etilmoqda. Maqom san'atining davomiyligini ta'minlash, uni kelajak avlodlarga yetkazish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Mustaqillik yillarida maqomga bo'lgan e'tibor**

O'zbek maqom san'ati milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismi sifatida ma'naviyatimizning rivojiga katta hissa qo'shgan manbalardan biridir. Bu ulkan meros, milliy dunyoqarashni shakllantirishga, inson ruhiy olamini boyitishga xizmat kilib kelgan va zamonaviy jarayonda o'z an'analari negizida davom etayotganini e'tirof etish lozimdir. Shu ma'noda maqom san'ati asrlar davomida xalqimizga ruhiy-ma'naviy quvvat berib kelgan. Aynan, ajdodlarimiz tafakkuri va daholari ijodida yaratilgan o'zbek maqomati buyuk ma'naviy boyligimiz ekanligini qayd etgan holda an'anaviy madaniyatimiz milliy mafkuramizni shakllantiruvchi ulug'vor manba sifatidagi mohiyatini ta'kidlash o'rinlidir.

Respublikamizda ilk bor O'zbek milliy maqom san'ati markazini tashkil etildi. Unda maqom san'atyuing ilmiy jixatidan o'rganish, tarixiy va nazariy asoslarini (maqom tarixi, nazariyasi va amaliyoti) tadqiq etish, ijrochilik yo'nalishlari amaliyoti (maqom ansamlari faoliyati, maqom anjumanlari, festivallar, ko'rik-tanlovlar)ni tashkil va amaliyotga joriy etish, maqomlarini o'rganilishi va ijodiyoti bilan bog'lik nashrlar (risolalar, ensiklopediyalar, lug'atlar, notalar va h.k)ni yaratish, ta'lim jarayonini maxsus maqom san'atiga bag'ishlangan fanlar, dasturlar, o'quv qo'llanmalar, darslik va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash kabi masalalar bilan faoliyat yuritilishi ko'zda tutilgan.[2.34]

### **II Xalqaro maqom san'ati anjumani**

2024-yil Jizzax viloyati Zomin shahrida II Xalqaro maqom anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanning ikkinchi kuni "Maqom san'atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlar" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston, Tojikiston, Ozarbayjon, Turkiya, AQSH, Kanada, Misr Arab Respublikasidan tashrif buyurgan yirik musiqashunos olimlar Shashmaqom turkumining shakllanishida Buxoro maqom maktabining ahamiyati, o'zbek maqomlarida maqom mavzusi, san'atshunoslik instituti xodimlarining maqomot o'rganilishiga qo'shgan hissasi bilan birgalikda Ozarbayjon, turk, arab an'anaviy qo'shiqchiligi rivojida maqom singari xalqning azaliy va durdona san'at namunalarning o'rni, roli, ahamiyati xususida fikrlar bildirildi. II Xalqaro maqom san'ati anjumani nafaqat o'zbek milliy maqom san'atining noyob namunalari keng targ'ib qilish, balki butunjahon ma'naviyatining ajralmas bir bo'lagini asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san'atga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kamol toptirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy

munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirishga ham xizmat qiladi va o'ylaymanki, bu an'analar hali uzoq davom etadi.

Niderlandiyalik musiqashunos olim Ostenriyk Jan Vouter-“Mening nazarimda bu yerga tashrif buyurgan barcha musiqachilar o'zining musiqiy sozlarida birinchi raqamli hisoblanadi. To'g'ri, bu tanlovning o'ziga xos talablari, shartlari bor. Har bir ishtirokchi albatta bellashuv uchun kelgan. Shu sababli ham hakamlarga oson bo'lmasligi turgan gap. Maqsad – zo'rlarning zo'rini aniqlash. Biroq musiqaning aniq belgilangan me'yorlari, tili, dini yo'q. Shuning uchun ham bu anjuman ishtirokchilarga katta tajriba maydonini o'tab beradi. Ko'p davlatlarda bo'lganman, ko'p festivallarda ishtirok etganman. Lekin, bunday katta miqyosda, ko'plab davlatlardan musiqachilar, sozandalar to'plangan tadbirni birinchi marta ishtirokchisi bo'ldim. Bu ko'pchilikka, ayniqsa milliy musiqa va maqom san'ati ixlosmandlariga zavq va albatta ilhom beradi”-deya ta'kidlaydi.

Ozarbayjonda chop etiladigan “Xalq gazetasi” gazetasining O'rta Osiyo bo'yicha muxbiri Kazimov Gulu Nadir o'g'lu-“Maqom sharq xalqlarining falsafiy musiqasi. U Ozarbayjon, Eron, O'zbekiston, shuningdek, arab davlatlarida ham bor. Sharq mamlakatlari musiqasini maqomsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Maqomni hozirgi kunda asosan o'rta yosh va yoshi katta insonlar ko'proq eshitadi. Endi uni yosh avlod ongiga ham singdirish payti keldi. Men O'zbekistonda maqom markazlari tashkil etilganligidan xursadman. Bu albatta quvonarli holat. II Xalqaro maqom anjumanining ochilish marosimida davlatingiz rahbarining so'zga chiqib, aynan O'zbekistonda maqom san'atini rivojlantirish borasidagi fikr bildirganidan rosti quvondim. Davlat rahbari sifatida ushbu san'at turiga qiziqyaptimi, demak O'zbekistonda maqomning ertasi bor, bo'lganda ham yorug' va bardavom. Bizda ham kishilar maqomni juda sevishadi. Har bir konsert dasturi albatta maqom san'ati bilan yanada sayqallanadi. Shaxsan men Ozarbayjondagi mug'om bilan O'zbekistondagi maqomning juda katta farqli jihatlarini deyarli ko'rmayman. Har ikkalasi ham aslida bir narsa, faqat atalishi turlicha. Biroq maqsad - muddao bitta. Mazkur anjumanda ana shu jihatlarni yanada to'laroq anglasak ajab emas”-deya O'zbekiston va Ozarbayjon nafaqat etnik jihatdan balki musiqiy yaqinligi haqida ham so'zladi.

Jizzax viloyatining Zomin tumanida to'rt kun davomida YUNESKO va AYSESKO shafeligi ostida II Xalqaro maqom san'ati anjumani o'tkazildi. Va nihoyat bugun anjuman ishtirokchilari o'rtasida o'tkazilgan tanlov g'oliblari aniqlandi. Ya'ni jahonning 16 ta davlatlaridan (Ozarbayjon, Qirg'iziston, Xitoy, Marokash, Turkmaniston, Iordaniya, Yaponiya, Tojikiston, Eron, Tunis, Hindiston, Misr, Indoneziya, Turkiya, Qatar, O'zbekiston) 95 nafar maqom ijrochilarining eng saralari tanlov g'olibi bo'ldilar.

Xalqaro tanlov ishtirokchilarini Tojikiston, Ozarbayjon, Misr, AQSH, Hindiston, Turkiya va O'zbekistondan bo'lgan hay'at a'zolari uchta nominatsiya –

“Eng yaxshi maqom ansambli”,

“Eng yaxshi yakkaxon cholg'u ijrochisi”,

“Eng yaxshi yakkaxon xonanda” yo'nalishlari bo'yicha baholadilar.

Ko'rik-tanlov g'oliblari Tashkiliy qo'mita tomonidan diplom, statuetka va quyidagi miqdorda pul mukofotlari bilan taqdirlandi:

“Gran-pri” – 15 000 AQSH dollari – Eron “Fors” ansambli solisti Ali Asg'ar Arabshohiy  
1-o'rin:

– yakkaxon ijrochi (xonanda yoki sozanda) – 10 000 AQSH dollari, Tojikiston milliy konservatoriya guruhi solisti Xurshid Ibrohimzoda.

– ansambl jamoasi uchun – 10 000 AQSH dollari, O'zbekiston milliy maqom san'ati markazi Yunus Rajabiy nomidagi maqom xonandalari ansambli

2-o'rin – quyidagi nominatsiyalar bo'yicha:

– yakkaxon ijrochi (xonanda yoki sozanda) – 7 000 AQSH dollari, Turkiya Chidem Gurdal  
– ansambl jamoasi uchun – 7 000 AQSH dollari, O'zbekiston maqom markazi, Jizzax viloyati hududiy bo'limi maqom ansambli.

3-o'rin – quyidagi nominatsiyalar bo'yicha:

– ansambl jamoasi uchun – 5 000 AQSH dollari, Xitoy Xalq Respublikasi Shinjon badiiy teatri, maqom badiiy truppasi

– yakkaxon ijrochi (xonanda yoki sozanda) – 5 000 AQSH dollari Hindiston, Ali Amjad Xon

Shuningdek, anjuman doirasida faol ijrochilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan “Eng yaxshi maqom xonandasi”, “Eng yaxshi maqom sozandasi”, “Eng yaxshi maqom ustози”, “Eng yaxshi maqom targ'ibotchisi”, “Eng yaxshi yosh maqomchi”, “Eng yaxshi maqom bastakori” kabi nominatsiyalar bo'yicha ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Jizzax viloyati hokimligining rag'batlantiruvchi sovg'a va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

G'oliblarni O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov hamda Jizzax viloyati hokimi Ergash Saliyevlar taqdirlashdi. Shu bilan birga anjumanning har bir ishtirokchisiga “Xalqaro maqom san'ati anjumani ishtirokchisi” sertifikatini taqdim etildi.

### **Xulosa**

XXI asrda maqom san'atiga zamonaviy texnologiyalar, sahna yechimlari, yangi talqinlar kirib kelmoqda. Biroq bu yangilanishlar maqomning an'anaviy mohiyatiga putur yetkazmasligi, balki uni kengroq auditoriyaga yetkazishga xizmat qilishi lo'zim. Maqom san'ati UNESCO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani bu san'atning jahon miqyosidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. U turli xalqaro festivallar, konsertlar orqali dunyo xalqlarini birlashtiruvchi ko'priklar vazifasini bajarmoqda. II anjumanda dunyoning 80 dan ortiq mamlakatidan maqom ijrochilari, musiqashunos olimlar, madaniyat arboblari ishtirok etdi. Bu esa maqom san'atining xalqaro tan olinishi, o'zaro tajriba almashuvi va madaniy muloqotni mustahkamladi. Anjumanda maqom san'atining turli millat va hududlardagi o'ziga xos namunalar namoyish etildi. Bu orqali maqom san'atining insoniyat madaniy merosidagi o'rni yana bir bor ta'kidlandi. Anjumanning muhim jihatlaridan biri yosh ijrochilar ishtirokidagi tanlovlar, mahorat darslari va davra suhbatlari bo'ldi. Bu esa maqom maktabining uzviy davomiyligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Anjuman O'zbekistonning boy madaniy merosga ega mamlakat sifatida dunyo sahnasidagi obro'sini yanada oshirdi. Shahrisabz shahrida xalqaro darajadagi san'at festivalining tashkil etilishi turizm va madaniyat sohasidagi yangi imkoniyatlarga yo'l ochdi. Anjuman doirasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar maqom san'ati bilan bog'liq dolzarb masalalarni muhokama qilishga zamin yaratdi. Bu, ayniqsa, musiqashunoslik, etnomuzikologiya yo'nalishlarida yangi izlanishlarga turtki berdi. II Xalqaro maqom san'ati anjumani nafaqat san'at bayrami, balki madaniy aloqalarni mustahkamlovchi, yosh avlodni ilhomlantiruvchi va maqom san'atining kelajagiga zamin yaratuvchi muhim voqea bo'ldi. Bu kabi anjumanlar O'zbekistonning madaniy diplomatiyasida alohida o'rin egallaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begmatov S. O'zbek maqom san'ati: XXI asr taraqqiyot tamoyillari. Sh., 2018.
2. "Maqom san'atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlari". II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Z., 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalqaro maqom anjumanidagi nutqi. - T. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil 7-sentabr.
4. <https://uzhurriyat.uz/2024/06/27/zomin-dunyo-maqomchilarini-chorlamoqda/>
5. <https://www.jizzax-ovozi.uz/yangiliklar/4062-maom-sanatining-nazarij-va-amaliy-asoslari-muammo-va-echimlar.html>
6. <https://daryo.uz/2018/09/06/shahrisabz-shahrida-1-xalqaro-maqom-san%ca%bfcati-anjumani-tantanali-ochildi/>
7. <https://uzreport.news/society/maqom-san-ati-uchun-asosiy-mavzu-eng-avvalo-shaxs-uning-erki-va-qadri-tinchlik-totuvlik-ha>

